


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
MOSCOW • RUSSIA



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek PHYSALIS ALKEKENGII O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLISHNING BIOTEXNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH	66
Xidirova Saboxat Baxrillayevna ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIJ TAJIRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A. IPAKCHILIK KLASSTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li OLIIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
Камариддинов Шохрух Акмал угли	
SANOAT KLASSTERLARIDA "SANOAT 4.0" TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI	113
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	119
Normamatov A. A.	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
HUDUDIIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI	128
Maxmudova Nodira Uktamovna	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
Norqulov Shohbozbek Samandar ugli	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI	145
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
Kilichov Nazar Bafoyevich	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI	157
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	164
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI	174
Ganiyev Botir Baxtiyorovich	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	178
Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	184
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	190
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	196
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI	201
Xakimov Rashid	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI	206
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH	212
Achilova Firuza, Zohidov Jamshid	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	217
Sattarov R.A.	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	222
Hurmurodov Kamoliddin Pirmamatovich	
OPTIK ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI	230
Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH	235
Siroj Zarina Rustambekovna	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	242
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
HUNARMANDCHILIK KLASSTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	249
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI ...	255
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	258
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIQIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODEL ...	266
Akhmetova Salima Seytovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY - USLUBIY JIHLTLARI	272
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
YASHIL INVESTITSİYALAR MINTAQQA IQTISODIYOTINI BARQAROR DIVERSIFIKATSİYALASH VOSITASI SIFATIDA	281
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
TIJORAT BANKLARI O'RTASIDAGI RAQOBAT DARAJASINING STATISTIK VA EKONOMETRIK BAHOSI: RAQOBAT VA MOLİYAVIY BARQARORLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	287
Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich	
O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINI RIVOJLANISH QONUNIYATLARI VA UNDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR TAHLILI	294
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD MANBALARI INDEKSI VA UNING RENTABELLIGIGA TA'SIRI	300
Ahmedov Komron Muhammad-Alievich	
KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARINING ISHLASH TAMOIYILLARI VA ULARNI QURILISH KORXONALARI AMALIYOTIGA JORIY ETISH MASALALARI	308
G'iyosov Ilxom Karimovich	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	316
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	

YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI

Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

"Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi talabasi

ORCID: 0009-0001-4040-8014

Ilmiy rahbar: Bo'stonova Nilufar Abdusamatovna

Andijon davlat texnika instituti

"Buxgalteriya hisobi" kafedrasida katta o'qituvchi

Annotatsiya. Maqolada raqamli iqtisodiyot va global iqlim o'zgarishlari sharoitida yashil buxgalteriya (Green Accounting) tizimini joriy etish hamda ESG (Environmental, Social, Governance) hisobotlarining nazariy-uslubiy va amaliy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining real sektorida korxonalarning barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini oshirish hamda xalqaro investitsiyalarni jalb etishda ESG hisobotlarining transformatsion roli yoritilgan. Shuningdek, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari - IFRS S1 va IFRS S2 talablarini milliy amaliyotga integratsiya qilish, ekologik audit tizimini takomillashtirish hamda institutsional risklarni kamaytirish yuzasidan ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil buxgalteriya, Green Accounting, ESG hisobotlari, barqaror rivojlanish, ekologik audit, IFRS S1 va IFRS S2, korporativ ijtimoiy mas'uliyat, yashil investitsiyalar.

Аннотация. В статье исследованы теоретико-методологические и практические основы внедрения системы зелёного бухгалтерского учёта (Green Accounting) и подготовки ESG-отчётности (Environmental, Social, Governance) в условиях цифровой экономики и глобальных климатических изменений. В ходе исследования раскрыта трансформационная роль ESG-отчётности в повышении показателей устойчивого развития предприятий реального сектора экономики Республики Узбекистан и привлечении международных инвестиций. Разработаны научно-практические предложения по интеграции требований Международных стандартов финансовой отчётности IFRS S1 и IFRS S2 в национальную практику, совершенствованию системы экологического аудита и снижению институциональных рисков.

Ключевые слова: зелёный бухгалтерский учёт, Green Accounting, ESG-отчётность, устойчивое развитие, экологический аудит, IFRS S1 и IFRS S2, корпоративная социальная ответственность, зелёные инвестиции.

Abstract. This article examines the theoretical, methodological, and practical foundations for implementing the Green Accounting system and ESG (Environmental, Social, Governance) reporting in the context of the digital economy and global climate change. The study highlights the transformative role of ESG reporting in improving the sustainable development performance of enterprises in the real sector of the economy of the Republic of Uzbekistan and in attracting international investment. Furthermore, scientific and practical recommendations are proposed for integrating the requirements of the International Financial Reporting Standards (IFRS S1 and IFRS S2) into national practice, enhancing the environmental audit system, and reducing institutional risks.

Keywords: Green Accounting, ESG reporting, sustainable development, environmental audit, IFRS S1 and IFRS S2, corporate social responsibility, green investments.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiya jarayonlariga tobora faol jalb etilishi, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash hamda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish korporativ boshqaruv va moliyaviy hisobot tizimlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Jahon iqtisodiyotida iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, uglerod



emissiyalarini qisqartirish hamda korxonalar faoliyatining ekologik va ijtimoiy ta'sirini kompleks baholashga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi natijasida yashil buxgalteriya (Green Accounting) va ESG (Environmental, Social, Governance) hisobotlari korporativ moliyaviy boshqaruvning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va raqamli platformalarning jadal rivojlanishi ESG ma'lumotlarini shakllantirish, monitoring qilish hamda manfaatdor tomonlarga ishonchli va shaffof tarzda taqdim etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda.

Mamlakatimizda ham ekologik barqarorlikni ta'minlash va "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son Qarori¹ bilan iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni kuchaytirish, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish hamda "yashil" investitsiyalarni keng jalb etish bo'yicha kompleks vazifalar belgilab berilgan. Mazkur qarorda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ekologik ko'rsatkichlarning shaffofligini ta'minlash hamda xalqaro standartlarga mos korporativ hisobot tizimini shakllantirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan.

Shu nuqtayi nazardan, korxonalar faoliyatiga yashil buxgalteriya tamoyillarini joriy etish, ekologik xarajatlar va ekologik majburiyatlarni moliyaviy hisobotlarda to'liq hamda ishonchli aks ettirish, shuningdek, ESG hisobotlarini xalqaro standartlar asosida shakllantirish nafaqat korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish, balki xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlash, xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish hamda korxonalarning uzoq muddatli qiymatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda xalqaro investorlar investitsiya qarorlarini qabul qilishda moliyaviy natijalar bilan bir qatorda korxonalarning ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv ko'rsatkichlariga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Natijada ESG reytinglari va barqaror rivojlanish hisobotlari korporativ risklarni baholash hamda investitsiya resurslarini samarali taqsimlashning muhim instrumentlaridan biriga aylanmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yashil buxgalteriya va ESG hisobotlarining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, ularni xalqaro standartlar talablari asosida milliy amaliyotga integratsiya qilish, ekologik audit tizimini rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda yashil buxgalteriya hamda ESG hisobotlarining nazariy asoslari, ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlari va korporativ qiymatga ta'siri keng tadqiq etilmoqda. Yashil buxgalteriya konsepsiyasining ilmiy-metodologik asoslari ekologik iqtisodiyot nazariyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda korxonalarning ekologik xarajatlari, ekologik majburiyatlari hamda tabiiy kapitaldan foydalanish samaradorligini buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mualliflar yashil texnologik innovatsiyalar hamda korporativ buxgalteriya axboroti sifati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni bir vaqtning o'zida baholash modeli asosida tadqiq etganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil texnologik innovatsiyalar korxonalarda axborot shaffofligini, ichki nazorat samaradorligini va moliyaviy hisobotlar sifatini oshiradi, yuqori sifatli buxgalteriya axboroti esa innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi [2]. Yuqori sifatli buxgalteriya axboroti boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshiradi, axborot assimetriasini kamaytiradi hamda yashil innovatsiyalarni rivojlantirish uchun qulay institutsional muhitni shakllantiradi. Mualliflar boshqaruv samaradorligi mazkur o'zaro bog'liqlikni yanada kuchaytirishini, shuningdek, ushbu ta'sir davlat va xususiy korxonalar hamda ekologik jihatdan yuqori ifloslantiruvchi va boshqa korxonalar kesimida turlicha namoyon bo'lishini ilmiy jihatdan asoslaydilar [3].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya iste'moli ulushining ortishi neft narxlarining joriy hisobga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytiradi. Mualliflar yashil energetikaga o'tish energiya xavfsizligini mustahkamlashi, tashqi iqtisodiy barqarorlikni oshirishi hamda uzoq muddatli makroiqtisodiy barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omili ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydilar [4]. Iqtisodchi olimlar yashil boshqaruv amaliyotlari va ekologik samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni Resurslarga asoslangan nazariya (RBV), Institutsional nazariya hamda TOE (Technology-Organization-Environment) modeli asosida empirik tahlil qilganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, rahbariyatning qo'llab-quvvatlashi, institutsional bosim va yashil boshqaruv amaliyotlari ekologik samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Mualliflar korxonalarda yashil innovatsiyalarni joriy etish hamda raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son <https://lex.uz/docs/-4539502>.

ekologik boshqaruv samaradorligini kuchaytirishning muhim omili ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydilar [5].

Mualliflar yashil moliyalashtirish manbalarining korxonalar tomonidan yashil obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorlarga ta'sirini ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar (SRI) yondashuvi asosida tahlil qilganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bozor kapitallashuvi, bozor likvidligi, korxona hajmi hamda ekologik texnologik innovatsiyalar yashil moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanishni rag'batlantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Mualliflar ekologik innovatsiyalar investorlar uchun muhim signal vazifasini bajarishini, bu esa yashil investitsiyalarni jalb etish va korxonalarning barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslaydilar [6].

Milliy buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda barqaror rivojlanish omillarini baholash yo'nalishida iqtisodchi olimlar M. Burt va B. Tursunov o'z ilmiy ishlarida korxonalarning ishlab chiqarish jarayonidagi ekologik xarajatlarini to'g'ri kalkulyatsiya qilish hamda rivojlanayotgan bozorlarda yashil buxgalteriyani joriy etish muammolarini o'rganganlar [7]. Mazkur tadqiqotda yashil iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va ekologik boshqaruv tizimlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Mualliflarning ta'kidlashicha, korxonalarda ekologik xarajatlar va ekologik majburiyatlarni buxgalteriya hisobida to'liq aks ettirish, ESG tamoyillariga mos hisobotlarni shakllantirish hamda raqamli texnologiyalarni hisob tizimiga integratsiya qilish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim omili hisoblanadi [8]. Shuningdek, muallif yashil buxgalteriyani barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim boshqaruv instrumenti sifatida baholab, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida O'zbekistonda ekologik xarajatlar va tabiiy resurslardan foydalanish natijalarini buxgalteriya hisobida to'liq aks ettirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Muallifning ta'kidlashicha, ESG hisobotlari, ekologik ko'rsatkichlarning moliyaviy hisobotlarga integratsiya qilinishi hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish korxonalar faoliyatining shaffofligini oshiradi, investorlar ishonchini mustahkamlaydi va barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi [9].

Yuqorida keltirilgan nazariy manbalar hamda iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlarini tizimlashtirgan holda ta'kidlash joizki, yashil buxgalteriya va ESG hisobotlari korxonalarning moliyaviy natijalarini baholashning an'anaviy yondashuvlarini ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlar bilan uyg'unlashtiruvchi zamonaviy boshqaruv instrumenti sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tadqiqotlarda, asosan, yashil innovatsiyalar, ekologik boshqaruv, ESG omillarining korporativ qiymatga ta'siri, yashil moliyalashtirish instrumentlari hamda korporativ shaffoflikni oshirish masalalari chuqur o'rganilgan bo'lsa, milliy ilmiy ishlarda ekologik xarajatlarni hisobga olish, xalqaro hisobot standartlarini joriy etish hamda yashil iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy modellashtirish, tarkibiy va funksional tahlil, induksiya va deduksiya hamda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Korxonalarda yashil buxgalteriya tizimining samaradorligi va ESG hisobotlarining xalqaro investitsiyalar oqimiga ta'sirini baholash maqsadida xalqaro ESG reyting agentliklari (MSCI, Sustainalytics, Bloomberg) ma'lumotlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil buxgalteriya an'anaviy buxgalteriyadan farqli ravishda nafaqat korxonaning ichki moliyaviy operatsiyalarini, balki uning tashqi muhitga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy tashqi ta'sirlarini (externalities) ham hisobga oladi (1-jadval).

1-jadval

An'anaviy buxgalteriya, Yashil buxgalteriya (Green Accounting) va ESG hisobotlarining qiyosiy tahlili²

Taqqoslash mezonlari	An'anaviy korporativ hisob	Yashil buxgalteriya (Green Accounting)	ESG hisobotlari tizimi
Asosiy maqsad	Aksiyadorlar, soliq organlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun moliyaviy ko'rsatkichlar, foyda va zararlarni aniqlash	Ekologik xarajatlar hamda tabiiy kapital eskirishini pul ifodasida baholash	Kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligini ESG mezonlari asosida investorlarga taqdim etish




Ma'lumotlar tavsifi	Faqat miqdoriy va moliyaviy (pul ifodasidagi) ma'lumotlar	Moliyaviy hamda natural-fizik ko'rsatkichlar (tonna, kVt-soat, m³)	Sifat ko'rsatkichlari, indekslar, sertifikatlar hamda miqdoriy ko'rsatkichlar kombinatsiyasi
Asosiy foydalanuvchilar	Menejerlar, soliq organlari, banklar va an'anaviy investorlar	Ekologik menejerlar, ichki audit xizmati hamda ishlab chiqarish texnologlari	Xalqaro institutsional investorlar, reyting agentliklari va jamoatchilik
Me'yoriy standartlar	BHMS (NAS) va IFRS (MHXS) talablari	EMA (Environmental Management Accounting) yo'riqnomalari	GRI, SASB, TCFD, shuningdek IFRS S1 va IFRS S2 xalqaro standartlari
Hisobot davriyligi	Har chorakda va yil yakuni bo'yicha majburiy tartibda	Asosan ichki ehtiyojlardan kelib chiqib, doimiy monitoring shaklida	Yilda bir marta, asosan yillik moliyaviy hisobot tarkibida yoki alohida hisobot shaklida

Korxonalarda yashil buxgalteriyani joriy etish, odatda, milliy iqtisodiyot darajasida (makro darajada milliy boylik va kapitalning integratsiyasi), korxona darajasida (mikro darajada moliyaviy va boshqaruv buxgalteriyasi tizimi tarkibida) hamda muayyan loyihalar darajasida (ekologik investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash yo'nalishida) izchil amalga oshiriladi. ESG hisobotlari esa yashil buxgalteriya tizimi orqali shakllantirilgan ma'lumotlarni investorlar, davlat organlari, kreditorlar va jamoatchilik kabi tashqi manfaatdor tomonlar uchun tushunarli hamda xalqaro talablarga mos universal hisobot shakliga keltiradi.

1-jadval ma'lumotlarining iqtisodiy va tizimli tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy korporativ buxgalteriya hisobi zamonaviy raqamli iqtisodiyot hamda barqaror rivojlanish talablari sharoitida korxonalar faoliyatining ekologik va ijtimoiy jihatlarini to'liq aks ettirish imkoniyatiga ega emas. Shu bois, yashil buxgalteriya va ESG hisobotlarini korporativ boshqaruv tizimiga integratsiya qilish korxonalar faoliyatining shaffofligini oshirish, manfaatdor tomonlarni ishonchli axborot bilan ta'minlash hamda boshqaruv qarorlarining sifatini yuksaltirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro moliya bozorida korxonalarning ESG ko'rsatkichlari asosida investitsiya kiritish hajmi yil sayin barqaror sur'atlarda ortib bormoqda. Xususan, yirik global institutsional investorlar, jumladan BlackRock va Vanguard, investitsiya portfellarini shakllantirish jarayonida ESG reytingi yuqori bo'lgan kompaniyalarga ustuvor ahamiyat bermoqda hamda ESG ko'rsatkichlari past bo'lgan kompaniyalarga investitsiya kiritishda ehtiyotkor yondashuvni qo'llamoqda.

Quyidagi 1-rasmda global miqyosda ESG tamoyillari asosida boshqarilayotgan investitsiya aktivlari (Assets Under Management - AUM) hajmining yillar kesimidagi o'sish dinamikasi hamda kelgusi yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Global ESG boshqaruvidagi aktivlarning o'sish dinamikasi va prognozi³ (trillion AQSh dollarida,

3 PwC Indonesia – Press Release (2025, English) <https://www.pwc.com/id/en/media-centre/press->



2020-2026-yillar).

1-rasmda aks ettirilgan global tendensiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020-yilda dunyo bo'yicha ESG mezonlari asosida boshqariladigan aktivlar hajmi 30,7 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 43,5 trillion AQSh dollariga yetgan. Amalga oshirilgan trend prognozlariga ko'ra, 2026-yil yakuniga qadar global ESG aktivlari hajmi 53,0 trillion AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda. Mazkur ko'rsatkich jahon bo'yicha jami investitsiya aktivlarining qariyb uchdan bir qismini tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Ushbu ijobiy dinamik o'sish mahalliy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari uchun muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekistonning yirik korxonalari, masalan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, O'zbekneftgaz va O'zmetkombinat xalqaro moliya bozorlaridan qulay shartlarda uzoq muddatli "yashil obligatsiyalar" (Green Bonds) orqali moliyaviy resurslarni jalb etishni maqsad qilgan taqdirda, ularda yashil buxgalteriya tizimi hamda xalqaro talablarga mos, shaffof ESG hisobotlarini shakllantirish amaliyoti samarali yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikamiz amaliyotida yashil buxgalteriya hisobini yuritishning metodologik asoslari, ekologik aktivlar va majburiyatlarni baholash mexanizmlari, ESG indikatorlarini moliyaviy hisobotlar bilan integratsiya qilish, ekologik auditning institutsional mexanizmlarini rivojlantirish hamda IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information va IFRS S2 Climate-related Disclosures standartlari talablarini milliy hisob va hisobot tizimiga joriy etish bo'yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda. Mazkur jarayon korxonalarining xalqaro barqaror rivojlanish standartlariga moslashuv darajasini oshirish, investitsiyaviy jozibadorligini mustahkamlash hamda ekologik risklarni boshqarish samaradorligini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ESG ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishning avtomatlashtirilgan mexanizmlarini joriy etish, ekologik xarajatlarni real vaqt rejimida monitoring qilish, korporativ barqarorlik ko'rsatkichlarini raqamli platformalar orqali boshqarish hamda manfaatdor tomonlar uchun shaffof axborot muhitini shakllantirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt va analitik platformalardan samarali foydalanish yashil transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida yashil buxgalteriya hisobini tashkil etishning kompleks metodologiyasi, ekologik aktivlar va ekologik majburiyatlarni baholash hamda ularni moliyaviy hisobot tizimiga integratsiya qilishning uslubiy asoslari hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, IFRS S1 va IFRS S2 standartlari talablarini milliy buxgalteriya hisobi amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etish, ESG ko'rsatkichlarini raqamli axborot tizimlari orqali avtomatlashtirilgan tarzda shakllantirish, ekologik audit natijalarini korporativ hisobotlar bilan integratsiyalash hamda ularning korxonalarining investitsiyaviy jozibadorligi va moliyaviy barqarorligiga ta'sirini baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro ilmiy manbalarda yashil moliyalashtirish, ESG reytinglari va barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik keng empirik ma'lumotlar asosida asoslab berilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida ushbu instrumentlarning amaliy samaradorligini baholash, tarmoqlar kesimida ularning iqtisodiy natijalarga ta'sirini aniqlash hamda korxonalarining raqamli transformatsiyasi bilan o'zaro bog'liqligini kompleks tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni yanada takomillashtirish zarur.

O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, xalqaro tajriba va statistik tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda yashil buxgalteriya (Green Accounting) va ESG hisobotlari tizimini joriy etish nafaqat korporativ boshqaruvni takomillashtirish, balki barqaror iqtisodiy o'sish va xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim strategik vositalaridan biri hisoblanadi. Yashil buxgalteriya tizimining milliy amaliyotda izchil shakllanishi korxonalarining ekologik xarajatlarni xolis va ishonchli baholash, resurslardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirish hamda ekologik talablarga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish orqali yangi bozor segmentlarida raqobatbardosh ustunlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>.
2. Han Y., Guo S. The Synergistic Effect Between Green Technology Innovation and Corporate Accounting Information Quality // Finance Research Letters. - 2025. - Vol. 85.
3. Xu R., Qiao Y., Lv H. Quality of Accounting Information and Corporate Green Innovation Performance // International Review of Economics & Finance. - 2025. - Vol. 100.

[release/2025/english](#).



4. Juhro S.M., Narayan P.K., Garg B., Anugrah D.F. Transition to a Green Economy, Oil Prices and the Current Account // *Energy Economics*. - 2024. - Vol. 139.
5. Lutfi A., Al-Hiyari A., Elshaer I.A., Alrawad M., Almaiah M.A. Green Environmental Management System and Environmental Performance: Results from PLS-SEM and fsQCA // *Sustainable Futures*. - 2024. - Vol. 8.
6. Leitão J., Ferreira J., Santibáñez-González E. Green Finance Sources in Iberian Listed Firms: A Socially Responsible Investment Approach // *Journal of Cleaner Production*. - 2023. - Vol. 427. - Article 139259.
7. Burt M., Tursunov B. Methodological Frameworks of Green Accounting Implementation in Emerging Markets // *Journal of Corporate Finance and Sustainability*. - 2024. - Vol. 14, No. 2. - P. 112-128.
8. Raximova U.R. va boshqalar. Yashil iqtisodiyot davrida buxgalteriya hisobi va ESG hisobotlari: raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanishning strategik vositalari // *Ilmiy anjumanlar materiallari*. - 2025. - DOI: 10.5281/zenodo.18038823.
9. Xolmurodova D. Enhancing Green Accounting in Uzbekistan: Comparative Lessons from Developed Economies for Sustainable Development // *Green Economy and Development*. - 2026. - Vol. 4. - No. 6.
10. Dabbous A., Barakat K.A. The Road Towards Environmental Sustainability: Investigating the Role of Information and Communication Technologies and Green Technology Innovations // *Journal of Cleaner Production*. - 2023. - Vol. 432. - Article 139826. - ISSN 0959-6526.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100